



MILLIY TA'LIM TIZIMIDA YOSHLAR ORASIDA KIBERBULLINGGA QARSHI KURASHISH MEXANIZMI

*Andijon Davlat Pedagogika Instituti
Milliy g`oya, ma`naviyat asoslari
va huquq ta`limi kafedrası v.b dotsenti
Karimov Elmurod Salimjonovich*

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15255243>

Annotatsiya. Ushbu maqolada kiberbullingga qarshi kurashish mexanizmlari, ayniqsa, milliy ta'lim tizimida yoshlar o'rtasida uning oldini olish bo'yicha amalga oshiriladigan chora-tadbirlar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Kiberbulling, axborot madaniyati, ta'lim tizimi, yoshlar, xavfsiz internet, globallashuv, axborot siyosati, kiberxavf, axborot makoni.

Kiberbullingga qarshi kurash strategiyasi umummilliy xarakterga ega bo'lmog'i lozim va qator yo'nalishlarda amalga oshirilishi kerak. Kiberbullingni nazorat qilish ta'lim tizimida bu boradagi ma'lumotlarni ko'paytirish, umumiy siyosat ishlab chiqish va texnologiyani qo'llagan holda aniq maqsadlarga erishishni o'z ichiga olgan ko'p qirrali yondashuv talab qilinadi. Xavfsiz internet konsepsiyasini ishlab chiqib umummilliy miqyosda tatbiq etish bolani internet tarmog'idagi xavf-xatarlarda ularga tushunarli bo'lgan tilda xabardor qilish zarur. Chunki "...axborot madaniyati jamiyatni axborotlashtirish va inson turmush madaniyatini tashkil etuvchi bilimlar majmuasi hisoblanadi. Chunki inson hamma vaqt axborotlarga muhtoj. Jamiyatni boshqarish bevosita axborot oqimiga bog'liq. Axborot insonning bilim olishida asosiy vosita sifatida unga bir qator qulayliklar yaratish bilan birga, uning ma'naviyatini, moddiy-turmush darajalarini rivojlantirishda muhim o'rin tutadi." [1] Kiberbullingga qarshi kurashning fundamental asosida axborot madaniyati yotadi. Bu esa huquqiy va texnologik chora-tadbirlar hisoblanadi.

Yoshlarning axborot madaniyati davlat axborot siyosatining tarkibiy qismiga aylanishi zarur. Chunki hozirgi kunda yoshlarning katta qismi axborotlarni ko'p qismini oila, ta'lim muassasasidan so'ng asosan internet tarmog'idan oladi. Bu esa sohaga bo'lgan e'tiborni kuchaytirish, qator dasturlar va yo'l xaritalarini ishlab chiqqan holda tegishli vazifalarni amalga oshirishni taqozo etadi. Bir necha yil ilgari taniqli siyosatshunos S.Xantington "bundan buyon butun dunyo faqat gamburgerlar iste'mol qiladi, Amerikada chop etilgan kitoblarni o'qiydi, Amerika televideniyesini ko'radi, amerikacha liboslar kiyadi" [2] deb taxmin qilgan edi. Bunday qarashlar zamirida qanday mafkuraviy maqsadlar yotganini payqash qiyin emas. Bugunga kelib nafaqat g'arbning liberal qadriyatlarini, balki yaqin atrofdagi davlatlardagi buyuk shovinistik g'oyalar ham yoshlar orasida faollik bilan targ'ib qilinmoqda. Shu bilan birgalikda bugungi kunda yoshlar orasida diniy va siyosiy ekstremistik g'oyalarni targ'ib qilish ishlariga ham O'zbekistonga do'st bo'lmagan davlat va xalqaro tashkilotlar tomonidan katta e'tibor qaratilmoqda. Bu esa milliy axborot makonini himoya qilish, sifatli kontent bilan to'ldirish zaruratini keltirib chiqaradi.

Axborot masalalari bo'yicha qator tadqiqotlar muallifi H.Rajabov yozadi: "Global axborotlashuv jarayonida o'zaro manfaatli umumiylikni targ'ib etish bilan bir qatorda milliy mentalitetimizga yot turmush tarzini tiqishtirish, dunyo xalqlarini o'ziga xos tarzda g'arblashtirishga intilish hollari ham kuzatilib, ushbu jarayon ham axborot xuruji tarzida namoyon bo'lmoqda. Tabiiyki, g'arblashtirish xalqlarning o'ziga xosligi, milliy xususiyatlari, madaniy an'analari putur yetkazmoqda" [3]. Bu esa milliy axborot siyosatini kiberbullingning salbiy ta'siridan kelib chiqib yanada rivojlantirish zaruratini vujudga keltirdi.

Axborot asri deb nom olgan XXI asrda axborot energiya manbalari, tabiiy boyliklar kabi strategik resursga aylanib, boy axborot imkoniyatlari mamlakatlar salohiyatiga xizmat qilmoqda. Axborot sohasidagi globallashuv aloqa-kommunikatsiya vositalarining uzluksiz rivojlanib borishi, global axborot tarmoqlarining vujudga kelib, ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy



hamda shaxsiy hayotga tobora kirib kelayotganligi, barcha sohalarning kompyuterlashtirilib, Internet tizimining yetakchi o'ringa chiqishi global axborotlashuv tushunchasining mutlaqlashuvini ta'minladi. Aytish mumkinki, jamiyatning global axborotlashuvi ilmiy-texnik, iqtisodiy va sotsial taraqqiyotning o'zagini tashkil etib, kundalik hayotda tobora mustahkam o'rin egallamoqda. Ya'ni, global axborotlashuv insoniyat taraqqiyotining bosh omiliga aylanib, ijtimoiy hayotda sivilizatsiyaning uchinchi to'lqini sifatida qaror topdi.

Shu sababdan, axborot jarayonlari dinamikasi (o'zgaruvchanligi) bilan bog'liq vazifalarga alohida e'tibor qaratish zarurati paydo bo'ldi. Axborotni ishlab chiqarish, tarqatish, unga ishlov berish bilan bog'liq faoliyat iqtisodiyotning o'ta muhim sektorlaridan biri bo'lib qoldi. Boshqa tarafdin, “axborot bo'shlig'i (makoni)” (g'arbiy atamashunoslikda “kiberbo'shliq (makon)”) avvallari quruqlikda, dengizda, dengiz qa'rida, havoda, koinotda, va nihoyat insonning o'zida olib borilgan raqobat o'rniga, endilikda davlatlar, elitalar, transmilliy korporatsiyalar raqobatchilik qiladigan asosiy maydonga aylanib bormoqda.

Bundan tashqari, XXI asrda jamiyat yoki ayrim ijtimoiy guruhlarni axborot yordamida boshqarish o'ziga alohida e'tibor jalb etadi. Ommaviy axborot vositalari, Internet olamni, shu bilan birga qo'llanadigan siyosiy, harbiy texnologiyalarni tubdan o'zgartirib, kiberterrorizm, kiberjinoyatchilik, kiberhujumlar kabi tushunchalarga e'tibor kuchayib bormoqda. Boshqacha aytganda insonning ongi va qalbini egallashga doir harakatlar kuchayib bormoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Маҳкамова М. Техника олий таълим муассасаларининг ўқув жараёнида талабаларда ахборот маданиятини шакллантириш: педагог. фан. б. фалс. докт. (PhD) ...дисс. авторефер. – Тошкент, 2019. – Б. 11
2. Умаров Б. Глобаллашув зиддиятлари: иқтисодий, ижтимоий ва маънавий жиҳатлари. – Тошкент: Маънавият, 2006. – Б. 89.
3. Ражабов Х. Глобаллашув шароитида давлатнинг ахборот сиёсати (Ўзбекистон Республикаси мисолида): сиёсий фан. б. фалс. докт.(PhD) дисс. ... – Тошкент, 2018. – Б. 125.